

**O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tizimida
korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023-yilning 9 oyida
amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
UMUMIY HISOBOT**

I. Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturining bajarilishi to‘g‘risida umumiy axborot.

Vazirlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy mexanizmlar joriy etilib, aloqa kanallarining ish faoliyati yo‘lga qo‘yildi, vakant lavozimlar bo‘yicha rasmiy veb-saytga e‘lon berilib, Vazirlik markaziy apparati, hududiy bo‘linmalari, tizim tashkilotlari va muassasalariga ishga qabul qilish jarayonlari ochiq va shaffof tanlov asosida, internet tarmog‘ida onlayn rejimda namoyish etish orqali tashkil etildi.

Ishga qabul qilish uchun hujjat topshirgan nomzodlarni tekshirish va xulosa tuzish amaliyoti joriy etildi, mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi asosiy shartlar kiritildi va xodimlar yozma tartibda imzo qo‘ygan holda tanishtirildi.

Manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha xodimlarning deklaratsiya to‘ldirish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi, kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi asosiy shartlar kiritildi, kontragentlarni tekshirish ijobiy yoki salbiy xulosa tuzish va reestrini yuritish, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi, shuningdek davlat dasturlarining ijrosi haqida umumiy hisobot yuritish, korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish hamda monitoring va nazorat tadbirlari natijasiga ko‘ra korrupsiyaviy harakat deb hisoblangan holatlar yuzasidan xizmat tekshiruvu o‘tkazish, reestrini yuritish yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son, 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son, 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmonlariga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturlarida vazirlikka yuklatilgan vazifalar yuzasidan qonunchilik hujjatlarini so‘nggi o‘zgartirishlarga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalarning loyihalari ishlab chiqildi.

II. Siyosat va tartib-taomillar.

Vazirlik markaziy apparati, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari hamda tizim tashkilotlari va muassasalari xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida quyidagi **15 ta ichki lokal idoraviy hujjatlar yangi tahrirda** vazirning tegishli buyruqlari bilan **qabul qilindi**. Xususan:

xodimlar faoliyatida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga murosasizlik va ularni sodir etishga yo‘l qo‘ymaslikni o‘zida aks ettirgan – **korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati;**

xodimlarning xizmat faoliyatiga oid va xizmatdan tashqari odob-axloqi, jamoatchilik bilan munosabatlariga doir qoidalarga rioya etilishini ta‘minlashga qaratilgan – **Odob-axloq qoidalari;**

xodim mehnat shartnomasi bo‘yicha o‘z xizmat vazifalarini bajarayotganda, korrupsiyaviy hatti-harakatlarda qatnashmaslik, shu jumladan g‘ayriqonuniy imtiyozlarni

olish yoki boshqacha tarzda g'ayriqonuniy maqsadlarda o'zining yoki boshqa shaxslarning harakatlari yoki qarorlariga ta'sir qilish uchun pul mablag'lari yoki boshqa qimmatliklar ko'rinishida pora taklif qilmaslik, va'da bermaslik, pul to'lamaslik, tovlamachilik qilmaslik, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaslik va pora olmaslik, biron-bir shaxs foydasiga yoki biron bir shaxs xizmatlaridan foydalanmaslik, mol-mulk yoki mulkiy huquqlarni olmaslik, shuningdek o'z vakolatlarini suiiste'mol qilmaslik majburiyatini olishi nazarda tutilgan – **mehnat shartnomalariga o'zgartirishning asosiy shartlari;**

tafklar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni Vazirlik xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Tafklar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat berishi nazarda tutilgan – **kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalarga asosiy shartlari;**

korrupsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun aloqa kanallari ishlashining asosiy tamoyillarini, shuningdek, xabarlarini qabul qilish, ularni ro'yxatdan o'tkazish va kelib tushgan xabarlarga munosabat bildirish tartibini belgilaydigan – **korrupsiyaga oid harakatlar to'g'risida axborot berish uchun aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va qayta ishlash reglamenti;**

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish asoslari va turlarini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish tartibini nazarda tutuvchi – **korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishda boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi;**

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va korrupsiyaga qarshi tadbirlarning bajarilishi haqidagi hisobotni shakllantirish tartibini belgilaydigan – **korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti;**

faoliyatda manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, oldini olish va tartibga solishga qaratilgan – **manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom;**

yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashga qo'yiladigan talablarni belgilaydi hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashda yagona yondashuvni yaratishga qaratilgan – **korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti;**

korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish va ularni sodir etishga olib kelayotgan sabablarni bartaraf etish, xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirish va ularni qonun hujjatlariga hamda Vazirlik, uning hududiy bo'linmalari va tashkilotlarining ichki hujjatlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan – **xodimlar uchun korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishni tashkil etish yuzasidan uslubiy ko'rsatma;**

korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi samaradorligini baholash hamda vazirlik va uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining faoliyatida korruptsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish maqsadida tekshirish, nazorat yoki tanqidiy o'rganish ko'inishida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi **holatining tahlili belgilangan – korruptsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti;**

vazirlik tomonidan xarid qilish tartib-taomillari, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzishda ishtirokchilarni majburiy tekshirishning asosiy talablari, tartibi va usullarini belgilaydigan – **Vazirlikda kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma;**

vazirlikka ishga qabul qilishda nomzodlar tekshiruvini o'tkazishning tamoyillari, talablari, tartibi va muddatlarini belgilovchi – **Vazirlikka ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma;**

vazirlik xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchiligi yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga oid ichki idoraviy hujjatlarini buzilishiga nisbatan xizmat tekshiruvini o'tkazishni belgilovchi – **Vazirlik xodimlarining korruptsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament;**

davlat xaridlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan – **davlat xaridlarini o'tkazish to'g'risidagi nizom.**

III. Xavf-xatarlarni baholash.

Kadrlarni tanlash, tayinlash va joy-joyiga qo'yish, nodavlat ta'lim muassasalari tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini tekshirish, budget intizomini mustahkamlash va budget to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlarini profilaktika qilish, budget xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini baholash hamda ichki audit faoliyati sohasidagi hujjatlar ijrosini ta'minlash maqsadida o'tkaziladigan o'rganishlarni o'z ichiga olgan **vazirlikning birlashgan korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi**, korruptsiya xavfiga ega eng ko'p moyil bo'lgan **funksiya va lavozimlar ro'yxati**, korruptsiyaga qarshi kurashish **dasturi “yo'l xaritasi”** tasdiqlanib, 2023-yil 23-iyunda 03-01/5-2405-sonli xat bilan ijroga qaratildi.

Tizimda korruptsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish, **6 ta** ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda inson omilini kamaytirish maqsadida, davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentlari tasdiqlanib, elektron platforma (my.gov.uz my.maktab.uz) orqali xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Shu kunga qadar **219 090 nafar** fuqaro ushbu xizmatdan foydalandi.

Bugungi kunda, dublikat shahodatnoma olish uchun fuqaro maktabga borish shart emas, elektron tizimdan ariza beradi va uzog'i bilan 3-4 kunda elektron shaklda dublikat

shahodatnoma beriladi. Bundan tashqari, dublikat olish uchun avval talab etilgan **6 ta** hujjat (gazeta e'loni, topilmalar idorasi ma'lumoti, pasport nusxasi, yozma ariza, pedagogik kengash qaroridan ko'chirma, yo'llanma xat) butunlay bekor qilindi.

2022-2023-o'quv yilidan **boshlab ilk bor maktab bitiruvchilariga elektron shahodatnoma berish tartibi joriy etilib**, namunasi va uni berish tartibi tasdiqlandi. Elektron shahodatnoma platformasi (e-shahodatnoma.uz) ishlab chiqilib, tegishli vazirlik va idoralarning elektron bazasiga integratsiya qilindi.

Eng muhimi, elektron shahodatnomaga QR-kod tasviri tushirilib, uni istalgan vaqtda elektron platforma orqali tekshirib olish yoki shahodatnoma yo'qotib qo'yilgan taqdirda dublikat olish uchun ovora bo'lmasdan shu zaxotiy oq elektron bazadan qayta bepul yuklab olish mumkin. Bu yil **974** mingdan ortiq bitiruvchilarga elektron shahodatnoma berildi.

2022-2023 o'quv yilidan boshlab **turli sabablarga ko'ra o'z vaqtida maktabni bitirmagan fuqarolarga umumiy o'rta ta'lim olish huquqini kafolatlash maqsadida eksternat tartibida yakuniy davlat attestatsiyalari (imtihon) topshirish uchun arizalar berish tizimi ham to'liq elektron shaklga o'tkazildi**. Eksternat tartibida imtihon topshirgan fuqarolarga **imtihon natijalari haqidagi ma'lumot elektron tizim orqali yuboriladi**. Shu kunga qadar **9310** nafar fuqaro ushbu xizmatdan foydalangan.

Masalan, fuqarolar eksternat tartibida imtihonlar topshirish uchun **my.gov.uz** elektron portali orqali **onlayn ro'yxatdan o'tadi** va so'rovnomani to'ldiradi hamda **1 ta hujjat** (baholar tabeli) **elektron shaklda** topshiradi (avval 4 ta hujjat topshirgan).

Eng ko'p korrupsiyaviy holatlar va ota-onalarning haqli e'tirozlariga sabab bo'layotgan jarayon bu **maktabga qabul yoki farzandlarini bir maktabdan boshqasiga ko'chirish jarayoni** hisoblanadi. Shu kunga qadar respublikamizning viloyat markazlari hamda Toshkent shahridagi maktablarga qabul yoki farzandlarini bir maktabdan boshqasiga ko'chirish xizmati joriy etilgan bo'lib, shu kunga qadar **57 445 nafar** fuqaro mazkur xizmatdan foydalangan.

Hozirda 1-sinfga qabul va o'qishini maktabdan-maktabga ko'chirish uchun ota-onalar onlayn shaklda ariza beradi, elektron tizim avtomatik ravishda uni maktabga yuboradi, o'quvchi maktabga qabul qilinadi yoki ko'chiriladi. 1-sinfga qabulda yaqin hududda yashayotgan fuqarolarning farzandlarini qabul qilishni kafolatlash maqsadida tizim orqali birinchi navbatda mikrohududdagi bolalar qamrab olinadi. Shu kunga qadar **150 911** nafar fuqaro ushbu xizmatdan foydalangan.

Ma'lumot uchun: mazkur tizim bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Hozirda **43 ta** tuman va shaharlarda **1100 dan** ortiq maktablarga joriy etilgan.

2022-yil 1-noyabrdan boshlab **chet el fuqarolari farzandlarini umumiy o'rta ta'lim muassasalariga qabul qilish uchun elektron tizim orqali ro'yxatdan o'tib, ariza yuboradi** va ularning yashash manziliga yaqin bo'lgan hududdagi maktabda joylanishi kafolatlanadi. Bunda topshiriladigan **hujjatlar soni 5 tadan 3 taga, muddati esa 14 kundan 7 kunga qisqartirildi**.

Shu kunga qadar **1 268** nafar fuqaro ushbu xizmatdan foydalandi.

2019-yil sentabrdan boshlab xorijda ta'lim olganlik ma'lumot to'g'risidagi hujjatni nostrifikatsiya qilish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatish yo'lga qo'yilib, muddati 7 kundan 4 kunga qisqartirildi, talab etiladigan hujjatlar esa 5 tadan 2 taga qisqartirildi.

Bunda fuqarolar elektron tizim orqali ro'yxatdan o'tib, ariza va tegishli hujjatlarni elektron yuboradi va ta'lim to'g'risidagi hujjati tan olinganligi bo'yicha ma'lumotnomani portal orqali yuklab oladi. Shu kunga qadar **1056** nafar fuqaro ushbu xizmatdan foydalandi.

Davlat tashkilotlarining 2023-yil uchun **raqamli transformatsiya holati reyting natijalariga ko'ra** Vazirlik davlat boshqaruvi organlari orasida **77,51 ball** bilan **11-o'rinda** bo'lib, **yashil hududdan** joy olgan.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar.

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish:

vazirlikda manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish maqsadida, 2023-yilning sakkiz oyida **177 nafar** xodim bo'yicha **to'ldirilgan deklaratsiyalar tekshirildi.**

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Tashkilot sharnomalariga kiritish:

korrupsiyaga qarshi qoidalar shartnomalarga kiritilgan bo'lib, o'rganish natijalari bo'yicha **4 ta holatda davlat xaridlari bekor qilindi.**

Xususan, Samarqand shahridagi Prezident maktabi hamda "Ziyo Goldin" MCHJ o'rtasida tuzilgan 09/08/23-1-sonli shartnoma 2023-yil 15-avgust kuni, Sirdaryo tumani Baxt shahridagi 71-sonli yordamchi maktab internati buyurtmachiligida "etender.uzex.uz" maxsus axborot portali orqali 285060-sonli lot bo'yicha tanlov g'olibi deb topilgan "Bunyodkor Go'sht Sut Ta'minot" MChJni elektron shaklda tasdiqlangan xarid komissiyasi bayonnomasi 2023-yil 16-avgust kuni, shuningdek, Qo'qon shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi buyurtmachiligidagi tanlovda g'olib deb topilgan "Binokor Imkon AD" MChJ bo'yicha "etender.uzex.uz" maxsus axborot portalidagi 288445-sonli lot 2023-yil 23-avgust kuni, Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi buyurtmachiligida "etender.uzex.uz" maxsus axborot portali orqali 295847-sonli lot bo'yicha tanlov g'olibi deb topilgan "Qodirali Ota Building" MChJni elektron shaklda tasdiqlangan xarid komissiyasi bayonnomasi 2023-yil 8-sentabr kuni bekor qilinib, mas'ullarga nisbatan intizomiy jazo choralari ko'rildi.

Kontragentlarni tekshirish:

Hisobot davrida **kontragentlar bo'yicha 19 ta tekshiruv o'tkazilib**, tegishli xulosalar rasmiylashtirilgan.

Xaridlarni amalga oshirishdagi xavf-xatarlarni oldini olish va ular ustidan doimiy monitoring (nazorat) o'rnatish maqsadida axborot tizimi (<https://xarid.uzedu.uz/>) yaratilgan bo'lib, vazirlik tashkilotlarining davlat xaridlari jarayonlarini boshqarish va monitoring qilish imkoniyatiga ega.

Mazkur Axborot tizimi davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portali <https://xarid.uzex.uz/> bilan integratsiya qilingan, dastur foydalanuvchisiga vaqtini eng

minimal tarzda sarflab maksimal tarzda qog'ozbozlik va ortiqcha ishlardan yuklamalarni kamaytirishi, vazirlik tizimida ishlarni tizimli tashkillashtirish, viloyat (shahar), tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'linmalaridan markazlashtirilgan tarzda aniq ma'lumotlarni olish imkoniyati, xavf-tahlil modulini shakllantirish imkoniyatiga ega.

Bunda bir hududdagi tashkilotlarning aynan bir tovar, ish va xizmatni yetkazib berishini nazorat va tahlil qilish imkoniyati, tovar, ish va xizmatning maksimal hamda minimal narxlari to'g'risida ma'lumotlar taqdim etish, tizim tashkilotlari tomonidan davlat xaridini amalga oshirish jarayonida zarur hujjatlarni joylashtirmagan taqdirda cheklov o'rnatish, tovar, ish va xizmatning turlarini ma'lum davrda hududlar kesimida eng ko'p xarid qilinayotganligi bilan bog'liq axborotlarni jamlash, qayta ishlash, tahlil qilish imkoniyati mavjud.

Shu bilan birga axborot tizimida quyi tashkilotlarga joriy yil uchun kerak bo'ladigan tovar, ish va xizmatlarni elektron ravishda davlat xaridini amalga oshiruvchi tashkilotga talabnoma yuborish imkoniyati mavjud.

Maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga ajratilgan mablag'larni samarali va maqsadli ishlatish bo'yicha o'tkazilgan **4 ta** nazorat va monitoring tadbirlarida aniqlangan **46 106 xolatda 19,8 mlrd so'mlik** moliyaviy xato va kamchiliklar bo'yicha **5 nafar** xodimga nisbatan jazoning muqarrarligi ta'minlandi va **93,8 mlrd. so'mlik** budjet mablag'laridan samarasiz foydalanishning oldi olindi.

Ishga nomzodlarni tekshirish:

ishga qabul qilish bo'yicha **666 nafar nomzod tekshirilib**, xulosa tuzildi.

V. Ta'lim va kommunikatsiya.

Barcha darajadagi xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilim, malaka ko'nikmalarini yanada oshirish maqsadida dastur asosida huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlari bilan hamkorlikda 14 ta hudud va tuman shaharlarni qamrab olgan holda **4 468 nafar xodim** iyun oyida **umumiy**, ichki nazorat tuzilmalari xodimlari esa **maxsus dasturlar asosida o'qitilib**, xodimlar va fuqarolar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot tadbirlarini tashkil etish va ularda foydalanish uchun **7 ta taqdimot materiallari hamda 4 ta qo'llanma joylarga yetkazildi.**

Vazirlik markaziy apparati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda tuman (shahar) bo'limlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga mas'ul jami **178 nafar** xodimlarining ish joyidan ajralmagan holda O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining saytida **“Korrupsiya qarshi kurashishning umumiy asoslari” modulida** qisqa muddatli o'quv kurslarida malakasini oshirish tashkil etilib, xodimlarga sertifikat berildi.

Shuningdek, Vazirlik va hududiy bo'linmalar xodimlari uchun **107 ta** seminar tashkil etilib, **861 dan ortiq** targ'ibot profilaktika tadbirlari o'tkazildi.

Vazirning korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatini ko'rsatuvchi **murojaatnomasi ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinib**, tizimda korrupsiya qarshi

samarali kurashish ishlarining ahvoli yuzasidan ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazilgan anonim so'rovda ishtirok etgan **37 600 nafar** fuqarodan **2 372 nafari** (respondent) so'rovnomani to'ldirdi.

So'rov natijalarida olingan ma'lumotlar faoliyatning barcha sohalarida korrupsiyaning turli ko'rinishlariga murossasiz munosabatni shakllantirish, xodimlarda huquqiy ong va madaniyatni oshirish bo'yicha yanada faol ish olib borishni ko'rsatib, hozirda chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'risidagi xabarlar.

Korrupsiya holatlari haqida xabar berish uchun barcha turdagi **aloqa kanallarining** ("Ishonch telefoni", elektron pochta manzillari, rasmiy veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlardagi boshqa sahifalar) uzluksiz faoliyati nazoratga olindi. "**Vazirga murojaat**" portali tashkil etildi (**3 991 ta** murojaat kelib tushgan). Masalan, 2023-yildi ishonch telefonlariga **55 890 ta** murojaatlar kelib tushgan bo'lib, ularning **3 687 tasi** nazoratga qo'yilgan, qolgan **52 203 tasiga** og'zaki tushuntirish berilgan. Shundan korrupsiyaga oid **2 533 ta** murojaatlar belgilangan tartibda ko'rib chiqilib, **252 ta** tezkor ma'lumotlar o'rganildi va natijasi bo'yicha munosabat bildirildi.

Jumladan, **6 ta** murojaat (Xorazm, Navoiy, Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona va Toshkent viloyatlari) bo'yicha xizmat tekshiruvi o'tkazilib, materiallar prokuratura idoralariga yuborildi.

Vazirlik tizimida sodir etilgan jinoyatlar tahlil qilidi. Xususan, 2023-yilda jami **116 nafar**, shundan, Qashqadaryoda **21**, Andijonda **17**, Toshkentda **13**, Namanganda **12**, Surxondaryoda **11**, Samarqand va Qoraqalpog'iston Respublikasida **9** nafardan, Farg'onada **7**, Navoiyda **6**, Sirdaryoda **4**, Jizzaxda **3**, Xorazm, Buxoro, Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi, shuningdek, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida **1 nafardan** xodim jinoyat sodir etgan.

Bu ko'rstkich 2019-yilda **17 nafar**, 2020-yilda **40**, 2021-yilda **142** va 2022-yilda **191 nafarni** tashkil etgan.

Jinoyatlarlarni kamaytirish maqadida, Vazirlik tizimida pora olish hamda pora berish xavflarini yuzaga kelish sabab va shart-sharoitlarini oldini olish maqsadida 9 ta tadbirni o'z ichiga olgan "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilib Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashga kiritish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuborildi.

VII. Monitoring va nazorat.

Vazirlikning **9 ta** hududiy (Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro, Andijon, Namangan, Navoiy, samarqand, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari) boshqarmalari va **1 ta** tizim (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti) tashkilotida korrupsiyaga qarshi talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillarning bajarilishi tekshirilib, tahliliy ma'lumotnoma tuzildi va faoliyatni tizimli yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatma kiritildi.

Vazirlik va tizim xodimlarining yoki uning kontragentlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari to'g'risida **20 ta ommaviy axborot vositalari monitoring qilinish, 5 ta**

ommaviy axborot vositasida e'lon qilingan **41 ta** axborot va ma'lumotlar o'rganilib munosabat bildirildi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari.

Hududlarda hamda tizim tashkilotlari va muassasalarida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish ishini samarali yo'lga qo'yish;

rahbariyat tomonidan kadrlar ustidan nazoratni kuchaytirish;

xodimga muntazam davlat xizmatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatib borish;

avallo, sharaf degan nomni tiklash maqsadida vatanparvarlik va xizmat burchiga o'ta sodiq kadrlarni erinmasdan izlab topish;

xodimlarni ishga qabul qilishda batafsil tekshirish tizimini joriy etish, yetarli va asosli sinov muddati belgilash;

yangi qabul qilinayotgan bo'lg'usi xodimlarning korrupsiyaga yoki oddiy qilib aytganda, pulga moyilligini aniqlash maqsadida mutaxassislar tomonidan mukammal tarzda maxsus psixologik testlarni ishlab chiqish va nomzodlardan mazkur test sinovlarini qabul qilishni amalga oshirish;

xizmat vazifalari taqozosiga ko'ra to'g'ridan to'g'ri aholi bilan muloqotga kirishuvchi xodimlar bilan alohida amaliy misollar keltirilgan videofragmentlar asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish;

tizimidagi xizmatlardan eng ko'p poraxo'rlik yoki ta'magirlik kabi qilmishlar sodir etib, jinoiy javobgarlikka tortilgan xodimlarning statistik tahlilini yuritib, ushbu xizmat yo'nalishida ishlovchi xodimlar o'rtasida belgilangan tartibda muntazam ijtimoiy so'rovlar o'tkazish va uning natijalariga asosan tegishli choralar ko'rish;

korrupsiya hodisasi bilan bog'liq, korrupsiya jinoyati sodir etgan xodimlarning sayyor sud majlislarini real holatini yoritgan, ta'sirchan film, videofragmentlarni ishlab chiqish hajmini oshirish hamda ularni xodimlar bilan ta'sirchan tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda foydalanish va korrupsiya jinoyati uchun jazoning muqarrarligi kabi achinarli vaziyatlarni ifodalab berish;

korrupsiya faktlarini fosh etuvchi ma'lumotlar bergan xodimlarni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish va himoya tizimini yaratish;

halol xizmatni muntazam rag'batlantirish;

barcha tarkibiy tuzilmalardagi korrupsiyaga chalinishga moyil soha va yo'nalishlarni aniqlash va oldini olish choralari samaradorligini oshirish;

xodimlarning malakasini oshirishga e'tiborni kuchaytirish;

xodimlarning yashash joylaridagi yurish-turishi haqida muntazam xabardor bo'lib turish ishlarini nazoratga olish.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazirlikning siyosati korrupsiyaviy harakatlarni o'z vaqtida aniqlash, ularga barham berish, oqibatlari, keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy harakatlarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini ta'minlash orqali tizimda korrupsiya holatlariga barham berish maqsadida, davlat budjetidan ajratilayotgan

mablag'larni maqsadli sarflanishini ta'minlash, budget qonunchiligiga rioya etilishini profilaktika qilish, monitoring va nazorat o'rnatish, shuningdek, davlat xaridlari jarayonida qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya etish haqida tizim tashkilotlariga 2023-yil 21-iyulda 01-01/5-469-sonli ko'rsatma berilib, soha alohida nazoratga olindi.

IX. Xulosalar.

Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari yaratilib, ichki idoraviy mexanizmlar joriy etildi. Navbatdagi bosqichda korrupsiyani vujudga keltiruvchi o'tish davridagi qiyinchilik, ijro etish tizimining yomonlashuvi, huquqiy nigilizm, jamiyatda insonlarning huquqiy madaniyati, iqtisodiy aspektlar kabi shart-sharoitlarni bartaraf etishga qartilgan kompleks-majmuaviy ishlar, shuningdek, ushbu xatti-harakatlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beruvchi holatlarni bartaraf qilish va oldini olish choralari ko'riladi.

Mazkur chora-tadbirlar orqali korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi va boshqa huquqbuzarliklarning oldi olinishi, faoliyatning ochiqligiga erishilishi va zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosiga nisbatan xodimlar mas'uliyatining yanada ortishi, xodimlarning kasbiy hamda xizmatdan tashqari faoliyatdagi odob-axloqining yuksalib borishi, faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning samaradorligini ta'minlashga erishiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va tegishli hujjatlar "e-anticor.uz" platformasiga joylashtirilib borilmoqda. Xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi e'lon qilgan 2022-yil bo'yicha Ochiqlik indeksida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi **21 ta vazirlik orasida 72,5 ball bilan 6-o'rinda, barcha davlat organlari va tashkilotlari orasida esa 11-o'rinda** joylashgan (ilova qilinadi) bo'lib, **yashil hududdan o'rin olgan.**

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi.

Vazirlik markaziy apparati, hududiy bo'linmalari hamda tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini yanada kuchaytirish, hujjatlar va belgilangan tadbirlar ijrosini ta'minlash bo'yicha 20 ga yaqin chora-tadbirlar ko'riladi.

Vazirlikda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi xavfni aniqlash va boshqarish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, xodimlarning ijtimoiy ahvolini o'rganib borish tizimini joriy etish, tovar-moddiy boyliklarning adolatli taqsimlanishini ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish, bunda xodimlarning ish xajmi va extiyojidan kelib chiqib moddiy boyliklardan foydalanish tartibini belgilash, davlat xaridlari bo'yicha har bir tovar pozitsiyasi kesimida xarid narxlarini respublika bo'yicha tahlil qilib borish, narxlarni eng maqbul bo'lishiga erishish bo'yicha takliflar tayyorlanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash va huquqiy nazorat boshqarmasi